

Ezgulik

Asling kabi ko'rin yoki
ko'ringaning kabi bo'l

Adabiy-badiiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va ommabop gazeta

Gazeta 2023 yil 1 fevraldan chiqa boshladi.

2025-yil 26-dekabr №31-son (79)

Yangi yil orzulari

*Kumush qishning beg'ubor og'ushi uzra
Jilolanib kirib kelar Yangi yil.
Qalblarga limmo-lim quvonch baxsh etib,
Orolanib kirib kelar Yangi yil.*

*Xayrli kel, yangi yilim har inson uchun
Baxt olib kel, farovonlik, iqbol olib kel.
Dashtu dala, bog'u rog'lar, keng osmon uchun
Qut-baraka, mo'l-ko'l hosil, chiroy olib kel.*

*Qalblarda porlasin oppoq tuyg'ular,
Har xonadon, har go'sha nurlarga to'lsin.
Ushalmasdan qolmasin ezgu orzular,
Fayzli Yangi yilingiz muborak bo'lsin!*

*Dilobar BOZOROVA,
Buxoro shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius*


YANGI NASHR


G'ayrat MURODOV.
Abadiyat va adabiyot. Ilmiy va
adabiy-tanqidiy maqolalar,
esdaliklar, she'rlar. –
Toshkent: Zaminnashr, 2025.
30 b/t.

To'plamda taniqli adabiyotshunos va shoir – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi G'ayrat Murodov qalamiga mansub asarlar jamlangan. Muallifning mazkur kitob uchun tanlangan ilmiy va adabiy - tanqidiy maqolalari, esdaliklari, o'ziga xos uslubda yozilgan she'riy ijod namunalarini o'qib, ularda zamonaviy ilmiy hamda badiiy tafakkurga xos yetakchi xususiyatlarni ko'rish mumkin. Tadqiqotlarida an'anaviy tadqiq usullaridan tortib struktur, semiotik metodlarning samarali istifoda etilgani olimning filologiya sohasida jiddiy izlanishlar olib borayotganidan dalolat beradi. She'riy tajribalarida ham yangi gap, fikr aytishga intilish, o'z qarashlarini ramziy-konnotativ tarzda ifodalash ko'zga tashlanadi.

To'plam muallifning ustozlari – professor Erik Karimov, akademik Baxtiyor Nazarov, shoir Sadriddin Salim Buxoriyning porloq xotiralariga bag'ishlangan.

Kitob muqovasida: buyuk musavvir Van Gogning "Tut daraxti" surati.





NIKOH SHARTNOMASI QANDAY TUZILADI?

Nikoh shartnomasi deb nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida hamda er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy xukuk va majburiyatlarini belgilovchi kelishuvga aytiladi.

Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingunga kadar bo'lajak er va xotinlar o'rtasida, shuningdek, er-xotin o'rtasida nikoh davrida xam tuzilishi mumkin. Bo'lajak er va xotinlar o'rtasida tuzilgan nikoh shartnomasi qayd etilgan kundan e'tiboran kuchga kiradi va amal qila boshlaydi. Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuzilib, albatta, notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 23-moddasiga ko'ra er va xotin nikoh shartnomasiga ko'ra birgalikdagi umumiy mulkning qonunda belgilangan tartibini o'zgartirib, er va xotinning barcha mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yoxud er va xotindan har birining mol-mulkiga nisbatan birgalikdagi, ulushli yoki alohida egalik qilish tartibini o'rnatishlari mumkin.


Nikoh shartnomasi nikoh tuzilgan kunda mavjud bo'lgan mol-mulkka nisbatan ham, kelgusida ortiriladigan mol-mulkka nisbatan ham tuzilishi mumkin. Bundan tashqari, nikoh shartnomasida er va xotin o'zaro moddiy ta'minot berish, oila xarajatlarini birgalikda ko'tarish, bir-birining daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olish, nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mulkni aniqlab olish, shuningdek, mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalarni kiritishga haqli.

Nikoh shartnomasida oila qonun hujjatlari normalariga zid keluvchi, er yoki xotindan birining huquqlarini cheklovchi, bolalarga nisbatan bo'lgan er va xotinning huquq va majburiyatlarini tartibga solishni, er va xotin o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishni, er va xotindan birini o'ta noqulay holatga solib ko'yuvchi boshqa shartlarni nazarda tutish mumkin emas. Nikoh shartnomasini bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi. Er-xotindan birining talabi bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda va asoslarda sudning hal qiluv qarori bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Nikoh shartnomasining amal qilinishi nikoh tugatilgan paytdan e'tiboran tugaydi, ammo nikoh shartnomasida nikoh tugatilgandan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar o'z kuchini yo'qotmaydi.

N.MARDONOVA,
Buxoro viloyat FHDY arxiv 1-toifali inspektori

O'ZINGIZ TANLAGAN FIRMA NOMINI QANDAY VAQTINCHA BAND QILISH MUMKINLIGINI BILASIZMI?



Jismoniy va yuridik shaxslar o'zlariga yoqqan firma nomini vaqtincha band qilishlari mumkin.

Buning uchun new.birdarcha.uz plat-formasi orqali yoki Davlat xizmatlari mar-kaziga murojaat qilib, tanlangan nomni 60 kun davomida zaxiraga olish xizma-tidan foydalaniladi.

Bu imkoniyat hujjatlarni tayyorlash va ro'yxatdan o'tkazish jarayonida firma nomining saqlanib turishini ta'minlaydi.

Ko'rib chiqish muddati – 2 ish kuni
To'lov – BHMning 50 foizi

Vakolatli organ – Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar

va Toshkent shahar adliya boshqarmalari

Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-fevraldagi 65-son qarori.

H.ODILOV,
Vobkent tuman Adliya bo'limi
Davlat xizmatlari markazi direktori

QISHLOQ XO'JALIGI, MELIORATSIYA VA YO'L-QURILISH TEXNIKALARI RO'YXATDA TURGANLIGI TO'G'RISIDA MA'LUMOTNOMANI BERISH ENDILIKDA DAVLAT XIZMATLARI MARKAZLARI TOMONIDAN BERILISHIDAN XABARINGIZ BORMI?

- Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalari ro'yxatda turganligi to'g'risida ma'lumotnoma olish;
- Davlat xizmatidan foydalanuvchilar jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi.
- Davlat xizmatini ko'rsatuvchi vakolatli organ Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi.
- Xizmatidan foydalanish uchun talab etiladigan ma'lumotlar quyidagilar: ariza beruvchi jismoniy shaxs uchun:
 - familiyasi, ismi va otasining ismi (o'zgargan bo'lsa, bu haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi);
 - pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi ma'lumotlari (JSHSHIR ma'lumotlari);
 - elektron pochta manzili (agar mavjud bo'lsa) va telefon raqami.
- Ariza beruvchi yuridik shaxs uchun:
 - to'liq nomi;
 - STIR;
 - elektron pochta manzili (agar mavjud bo'lsa) va telefon raqami.
- 2. Texnikaning davlat raqami belgisi;
- texnik pasport yoki texnik guvohnoma seriyasi va raqami;
- Davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun undiriladigan yig'im miqdori Bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi.
- Xizmatini ko'rsatish muddati Real vaqt rejimida.

S.XAZRATKULOV,
Buxoro shahar Adliya Bo'limi DXM katta mutaxassisi



Madina MUXAMMADIEVA,
O'zbekiston Ekologik partiyasi Buxoro tuman kengashi deputati

TOZA MUHIT — SOG'LOM KELAJAK KAFOLATI

Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi jamiyat hayotida eng dolzarb yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Ekologik barqarorlik nafaqat tabiat, balki inson salomatligi va kelajak avlod taqdiri bilan chambarchas bog'liq.

Tumanimizda so'nggi yillarda atrof-muhitni yaxshilash, yashil hududlarni kengaytirish, chiqindilarni to'g'ri boshqarish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, daraxt ekish aksiyalari, tozalash hasharlari hamda aholi o'rtasida ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan tadbirlar tashkil etilmoqda. Biroq ayrim muammolar ham mavjud. Maishiy chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlash, suvdan noto'g'ri foydalanish, yashil hududlarga beparvolik bilan munosabatda bo'lish kabi holatlar hali-hanuz uchrab turibdi. Bu esa barchamizdan mas'uliyat va ongli munosabatni talab qiladi. Ekologiya partiyasi tuman kengashi deputati sifatida men atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi murojaatlarini o'rganish va ushbu sohada qonun ustuvorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratmoqdaman. Fuqarolar bilan muloqot, jamoatchilik nazorati va hamkorlik ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega. Shuni unutmashimiz kerakki, toza muhit — bu faqat davlat yoki alohida tashkilotlar ishi emas. Bu har bir fuqaroning burchi. Tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, chiqindilarni to'g'ri tashlash, daraxt ekish va suvni tejash orqali biz sog'lom va barqaror kelajakni barpo etishimiz mumkin.

Kambag'al oila a'zolariga o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur asbob-uskunalarni xarid qilishga ssuda ajratiladi



Talabgor o'zining doimiy yashash manzilidagi hokim yordamchisiga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va "Onlayn mahalla" elektron platformasi orqali murojaat qiladi.

Zarur bo'lgan asbob-uskunalarni xarid qilishga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha miqdorda ssuda beriladi.

Ssuda 6 oydan 3 yilgacha bo'lgan muddatga foizsiz ajratiladi.

Asos: Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-martdagi 158-son qarori.

A.JAMOLOV,
Shofirkon tuman Adliya bo'limi
Davlat xizmatlari markazi bo'lim boshlig'i

Mast haydovchi YPX inspektoriga qarshilik ko'rsatdi



2025-yil 20-noyabr kuni jinoyat ishlari bo'yicha Buxoro tuman sudi binosida ochiq sud majlisi bo'lib o'tdi. Sud majlisida qonun ustuvorligi, jamiyat xavfsizligi va inson hayotiga bo'lgan mas'uliyat masalalari markazga chiqdi.

2025-yil 7-iyul kuni soat 21:00 atrofida SH.R. o'zining "Captiva" rusumli avtomashinasini mast holda boshqarib, Buxoro shahri tomonidan Novmetan mahalla fuqarolar yig'ini yo'nalishida harakatlangan. Yo'lining 11-kilometrida harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida xizmat olib borayotgan YPX inspektori jezl tayovqchasi va hushtak orqali to'xtash ishorasini berganiga qaramasdan, haydovchi qonuniy talabga bo'ysunmagan.

Aksincha, SH.R. qonuniy xizmat faoliyatiga faol qarshilik ko'rsatib, avtomashinani to'xtatmasdan harakatni davom ettirgan va xizmat vazifasini bajarayotgan YPX xodimini qasddan urib yuborgan. Oqibatda, jabrlanuvchi og'ir tan jarohatlari olgan, xizmat vazifasini bajarish imkoniyatidan mahrum bo'lgan va uzoq muddatli davolanishga majbur bo'lgan.

Sud jarayonida sudlanuvchi SH.R. aybiga to'liq iqror bo'lib, qilgan ishidan chin ko'ngildan pushaymon ekanini bildirgan. U dastlabki tergovda bergan ko'rsatmalarini tasdiqlab, spirtli ichimlik iste'mol qilgan holda mashina boshqarganini, sodir bo'lgan voqeadan qo'rqib, hodisa joyidan ketib qolganini tan olgan.

Jabrlanuvchi guvohlar — YPX xodimlari, mahalliy fuqarolar hamda hodisa vaqtida voqeani kuzatgan shaxslarning ko'rsatmalari bir-birini to'ldirgan holda, sudda ishning barcha holatlarini yaqqol tasdiqladi. Shuningdek, sud-tibbiy ekspertiza xulosalari, mastlik holatini aniqlash dalolat-nomalari, "body camera" yozuvlari, fotosurat va videomateriallar sud tomonidan har tomonlama o'rganildi.

Sud sudlanuvchi va himoyachi tomonidan ilgari surilgan harakatlarni qayta kvalifikatsiya qilish haqidagi vajlarni asosli deb topmadi. Sud xulosasiga ko'ra, SH.R. o'z qilmishini qasd bilan sodir etgan, ya'ni u o'z harakatlarining ijtimoiy xavfli ekanini anglagan holda, og'ir oqibatlarga ongli ravishda yo'l qo'ygan deb topdi.

Natijada sud tayinlangan jazolarni qisman qo'shish yo'li bilan SH. R.ga 3 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosini tayinladi. Unga yashash joyini o'zgartirmaslik, viloyat hududidan chiqmaslik va alkogolli ichimlik iste'mol qilmaslik kabi qo'shimcha cheklovlar yuklatildi.

S. MADRAXIMOV,
Bosh prokuratura boshqarma prokurori



ADLIYA XABARLARI



Vakolatli organlarning tegishli davlat xizmatlari yuzasidan qabul qilgan ma'muriy hujjatlari ustidan shikoyat yo'llash tartibidan xabardormisiz?

Davlat xizmatidan foydalanish uchun ariza beruvchi (16 yoshga to'lmagan shaxs nomidan uning qonuniy vakili) Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali murojaat qiladi.

Vakolatli organ: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.

Arizani ko'rib chiqish muddati: Ariza tushgan kundan boshlab o'n besh kun ichida (qo'shimcha o'rganish talab etilgan hollarda, arizani ko'rib chiqish muddati ariza tushgan kundan boshlab bir oy muddatda).

Davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun yig'im undirilmaydi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi PQ-188-son "Huquqiy eksperiment tariqasida davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq ma'muriy hujjatlar bo'yicha nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yangi tartibini joriy etish to'g'risida"gi qarori.

Sattor KARIMOV,
Samadovich Shofirkon tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi bo'lim boshlig'i

Parvozlarning xavfsizligiga xavf solishi mumkin bo'lgan faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsatnoma



Arizalar "Litsenziya" AT va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali qabul qilinadi.

Ariza beruvchilar toifasi: yuridik va jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkor).

Vakolatli organ: Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi.

Har bir obyektga ruxsatnoma berish uchun undiriladigan yig'im miqdori: bazaviy hisoblash miqdorining 23 baravari.

Arizani ko'rib chiqish muddati: 15 kun.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-fevraldagi 86-son qarori.

F.ASADOV,
Shofirkon tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi

MEROS ISHI OCHILDI

Buxoro viloyati, Buxoro shahar, Oq Masjid ko'chasi 14-uy 4-xonadonda yashab, 2024-yil 7-mayda vafot etgan Musayev Amrillo Nurilloevichning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rlaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Buxoro shahridagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi

* * *

Buxoro viloyati, Buxoro tumani, Shergiron MFY Dehimiyona qishlog'ida yashab, 2022-yil 27-aprelda vafot etgan Mubinov Ibodning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rlaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Buxoro tumanidagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.

* * *

Buxoro viloyati, Romitan tumani, Hofizrabot MFY, Arablar qishlog'i, 49-uyda yashab, 2025-yil 22-fevralda vafot etgan Safarov Amon Radjabovichning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rlaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Romitan tumanidagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.

* * *

Buxoro viloyati, Romitan tumani, A.Navoiy MFY, Do'stlik ko'chasi, 136-uyda yashab, 2025-yil 24-iyunda vafot etgan G'ulomov Shodi Teshayevichning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rlaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Romitan tumanidagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.



QONUN OLDIDA BAHONA TOSH BOSMADI

Mamlakatimizda sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlar zahirida avvalo inson manfaatlarini mujassam. Adashib jinoyatga qo'l urib qo'yganlarga odil sudlov qonun doirasida yengil jazo qo'llashidan maqsad-- sudlanuvchi oilasi bag'rida bo'lishini ta'minlaydi.

Shofirkon tuman tibbiyot birlashmasining xo'jalik ishlari bo'yicha mudiri vazifasida ishlab kelgan Murtazo Qobilov (ism va familiyalar shartli ravishda o'zgartirildi) muqaddam jinoyat ishlari bo'yicha Shofirkon tuman sudining 2024 yil 29 may kunidagi hukmiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi JK 167-moddasi 2-qismining "a,b,g" bamlari va 228-moddasi 2-qismining "a" bandi bilan JKning 45, 59-moddalari tartibida 1 yil muddatga muayyan huquqdan, ya'ni mansabdorlik va moddiy javobgarlik lavozimlarida ishlash huquqidan mahrum qilingan holda 3 yil 1 oy ozodlikni cheklash jazosiga tortilgan. Jinoyat ishlari bo'yicha Shofirkon tuman sudining 2024 yil 11 dekabrda ajrimi bilan o'talmay qolgan 6 oy 12 kun muayyan huquqdan, ya'ni mansabdorlik va moddiy javobgarlik lavozimlarida ishlash huquqidan mahrum qilish jazosini o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan. Xo'sh, M.Qobilov bundan qanday xulosa chiqardi?

M.Qosimov Shofirkon tuman tibbiyot birlashmasining xo'jalik ishlari bo'yicha mudiri lavozimida ishlab kelib, to'liq moddiy

javobgar shaxs bo'la turib, 2024 yil yanvar-fevral-mart oylarida tibbiyot birlashmasiga oziqovqat mahsulotlari yetkazib berish maqsadida tuzilgan oldi-sotdi shartnomalariga asosida ta'minotchi korxonalar tomonidan birlashmaga yetkazib berilgan oziq-ovqat mahsulotlarini ishonchnomalarga asosan to'liq qabul qilib olgan va ixtiyorida bo'lgan jami 32 turdagi 61.650.085 so'mlik ancha miqdordagi mahsulotlarni o'zlashtirish va rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilgan.

O'z vazifasi mas'uliyatini yaxshi biladigan xodim boshliqlarning noqonuniy og'zaki topshiriqlarini oqibatini o'ylamay bajaravermasligi kerakligini chuqurroq anglaydigan bo'ldi.

M.Qobilovning suddagi ko'rsatmasidan: 2024 yil 1 yanvar kuni tibbiyot birlashmasining bosh shifokori va birlashmaning bosh hisobchisi chaqirib, oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va ularni tarqatish uchun og'zaki ko'rsatma berganlarini, mahsulotlarning hujjatlari bilan o'zlari shug'ullanishlarini aytganlarini, ularning ushbu topshiriqlariga asosan 2024 yil 1 yanvar kundan 2024 yil 26 mart kuniga qadar

ta'minotchi korxonalardan mahsulotlarni qabul qilganligini, ammo tekshirish hujjatlarida qayd etilgan 61.650.085 so'mlik mahsulotlarni qabul qilib olmaganligini, ularni o'zlashtirmaganligini qayd etdi. Garchi, "mening elektron imzoyimdan foydalanishgan", desada bu o'zlashtirish ortida xo'jalik mudiri hech qanday manfaat ko'rmaganligiga kafolat yo'qda...

Qonun o'z so'zini aytdi. Sud M.Qobilovni aybli, deb topdi. Unga, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 167-moddasining 1-qismi bilan JKning 45-moddasiga asosan 2 (ikki) yil muddatga muayyan huquqdan, ya'ni mansabdorlik va moddiy javobgarlik lavozimlarida ishlash huquqidan mahrum qilib, bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida – 5.100.000 (besh million yuz ming) so'm jarima jazosi tayinlansin.

Ramziddin NURITDINOV,
Departamentning Shofirkon tuman
bo'limi boshlig'i

* JARAYON

"O'zagroinspektsiya"ning Buxoro viloyat boshqarmasida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-fevraldagi 74-sonli qarorlari, hamda huquqiy axborotni tarqatishga oid boshqa qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etish uchun Inspektsiya organlarida qonunlarni targ'ib qilish samaradorligini oshirish, qonun hujjatlari, ularga kiritilayotgan o'zgartirishlar va amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, maqsadida boshqarmaning barcha shaxsiy tarkibi ishtirokida maxsus reja asosida davlat xizmatchilari uchun "Kasbiy ma'rifat" soatida davra suhbatini tashkil qilindi.



KORRUPSIYA - JAMIYAT ILLATI

Tadbirda Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi JQB Korruptsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi katta tezkor vakili F.B.Mustafoev so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati to'g'risida batafsil to'xtalib, yig'ilish ishtirokchilariga ushbu qonun yo'nalishi bo'yicha tushuntirib berdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-sentyabrdagi PQ-374-sonli "Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 170-sonli "Qishloq xo'jaligi, meliorasiya va yo'l-qurilish texnikalaridan foydalanish sohasida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan boshqa ehtiyojlar uchun yer uchastkalari berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2011-yil 25-maydagi 146-sonli Qarorlarining ijrosi yuzasidan soha yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot berib o'tdi. Shuningdek, yo'l qo'yilgan kamchiliklar to'g'risida gapirib, hozirgi kunda jamiyatimizda uchrab turgan tovlamachilik, poraxo'rlik kabi illatlarning sodir etilishi hamda unga qarshi murosasiz kurash olib borilayotganligi to'g'risida hayotiy misollar keltirib o'tdi. Ma'ruzachi sohada olib borilgan ishlar jarayonida ayrim xodimlar faoliyatiga tanqidiy baho berdi.

Har bir xodim avvalo, qonun talabini anglashi shart. Xizmat

ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklarni olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi, shuningdek mazkur mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish kabi qonunga xilof hatti-harakatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari(210-modda(Poraolish), 211-modda (Pora berish), 212-modda (Pora olish-berishda vositachilik qilish))ga asosan jinoiy javobgarlikka tortilishi, ya'ni har qanday jinoyatga nisbatan Qonunda nazarda tutilgan tartibda jazo muqarrarlari alohida ta'kidlandi.

V.NARZIYEV,
"O'zagroinspektsiya"ning Buxoro viloyat
boshqarmasi boshlig'i

MEROS ISHI OCHILDI

Buxoro viloyati, Kogon tumani, Taraqqiyot MFY, Dexmirzayon ko'chasida yashab, 2025-yil 8-yanvarda vafot etgan Muradov Rashid Azizovichning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rlaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Kogon tumanidagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.

INGLIZ TILINI O'QITISHDA AMALIY YONDASHUV VA KASBIY TA'LIMDAGI O'RNI

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tilini bilish nafaqat umumta'lim muassasalari, balki kasb-hunar va texnik ta'lim tizimi uchun ham muhim zaruratga aylanib bormoqda. Ayniqsa, politexnikumlarda ta'lim olayotgan yoshlar uchun ingliz tili kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish, zamonaviy texnologiyalar va xalqaro tajribani o'zlashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz tili fani o'qituvchisi sifatida dars jarayonida shuni kuzatish mumkinki, o'quvchilar tilni faqat grammatik qoida yoki lug'at yodlash orqali emas, balki amaliy ehtiyoj asosida o'rganganlarida ko'proq qiziqish bildiradilar. Shu bois politexnikum sharoitida ingliz tilini o'qitishda kommunikativ va kasbiy yo'naltirilgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Darslarda kundalik hayot va kelajak kasbiga oid mavzularni tanlash, texnik atamalarni bosqichma-bosqich o'rgatish, qisqa dialog va matnlar orqali o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish ijobiy samara beradi. Masalan, kasbiy yo'nalishga mos oddiy matnlarni o'qish va tahlil qilish orqali o'quvchilar nafaqat yangi so'zlarni o'zlashtiradi, balki matn bilan ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Shuningdek, ingliz tilini o'rganishda tinglab tushunish (listening) va gapirish (speaking) ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki til — avvalo muloqot vositasi. Qisqa audio matnlar, oddiy savol-javoblar, guruhli ishlash usullari o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifodalashiga yordam beradi. Bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchini xatodan qo'rqmaslikka undash, rag'batlantiruvchi muhit yaratishdan iborat. Axborot

texnologiyalaridan oqilona foydalanish ham ingliz tili darslarining samaradorligini oshiradi. Elektron resurslar, interaktiv mashqlar, videomateriallar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Biroq texnologiya maqsad emas, balki ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi vosita ekanini unutmaslik lozim.

Xulosa qilib aytganda, politexnikumlarda ingliz tilini o'qitish jarayoni o'quvchining kelajak kasbiy faoliyati bilan uzviy bog'langan holda tashkil etilishi zarur. Amaliy yondashuv, sodda va tushunarli metodlar, doimiy muloqotga asoslangan darslar orqali ingliz tili o'quvchilar uchun murakkab fan emas, balki zarur va foydali bilim manbaiga aylanishi mumkin. Bu esa yoshlarning kasbiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.



Feruza JUMAYEVA,
Shofirkon tuman politexnikumi
ingliz tili fani o'qituvchisi

ONA TILI — MILLAT TAFAKKURI VA MA'NAVIYAT KO'ZGUSI



Bugungi globallashuv sharoitida tillar o'rtasidagi raqobat tobora kuchayib borayotgan bir paytda ona tilining qadri, ahamiyati va ta'limdagi o'rni haqida chuqurroq mushohada yuritish har bir

pedagogning muqaddas burchidir. Chunki ona tili — shunchaki muloqot vositasi emas, balki xalqning asriy tafakkuri, tarixiy xotirasi va ma'naviy olamini mujassam etgan bebaho boylikdir.

Ona tilida inson ilk bor dunyoni taniydi, o'z fikrini shakllantiradi, his-tuyg'ularini ifoda etadi. Shu bois til — tafakkur asosi. Ta'lim jarayonida ona tili fanining yetakchi o'rni ham aynan shundan kelib chiqadi. Ona tili orqali o'quvchi nafaqat savod chiqaradi, balki mantiqiy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, nutq madaniyatiga amal qilish ko'nikmalarini ham egallaydi.

Bugun politexnik ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan yoshlar kelajakda turli sohalarning yetuk mutaxassisleri bo'lib yetishadilar. Ammo qaysi kasbni tanlamasin, ravon va savodli nutq, fikrni aniq va tushunarli ifodalash malakasi ularga doimo hamroh bo'ladi. Shu ma'noda ona tili darslari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ona tili ta'limi faqat grammatik qoidalarni o'rgatish bilangina cheklanib qolmasligi lozim. U o'quvchini milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, so'zga mas'uliyat bilan qarash, til boyliklaridan o'rinli foydalanishga o'rgatishi zarur. Bunda badiiy matnlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, zamonaviy publitsistik materiallardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi yosh avlod tilga befarq bo'lmasligi, uni asrab-avaylab, boyitib borishi kerak. Zero, tilga bo'lgan e'tibor — millat kelajagiga bo'lgan e'tibordir. Ona tilini chuqur o'rgangan, uning nozik jihatlarini anglagan yosh hech qachon o'z ildizidan uzilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili — millatning ma'naviy tayanchi, jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir. Uni o'rganish, asrash va rivojlantirish har birimizning sharaflari va vazifamizdir. Pedagog sifatida bizning eng katta maqsadimiz — ona tilining qudratini yoshlar qalbiga singdirish, ularda tilga muhabbat va hurmat tuyg'usini mustahkamlashdir.

Zarina BO'RONOVA,
Romitan tuman 1-son politexnikum
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida

axborot inson ongiga eng tez ta'sir qiluvchi kuchga aylandi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt va raqamli platformalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanar ekan, ta'lim tizimi oldida mutlaqo yangi vazifalar yuzaga chiqmoqda. Bu jarayonda zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki axborot oqimida yo'l ko'rsatuvchi yetakchi sifatida maydonga chiqmoqda.

ZAMONAVIY PEDAGOG TA'LIMIDA MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI FANINING DOLZARBLIGI

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fani bugungi ta'lim tizimining eng dolzarb va strategik ahamiyatga ega fanlaridan biri hisoblanadi. Chunki mazkur fan yosh avlodni axborotni tanqidiy tahlil qilishga, yolg'on va manipulyativ xabarlarini farqlashga, media mahsulotlardan ongli va mas'uliyatli foydalanishga o'rgatadi.


Zamonaviy pedagog uchun mediasavodxonlik - bu faqat texnik ko'nikma emas, balki professional mas'uliyatdir. O'quvchi yoki talaba bugun bilimni faqat darslikdan emas, balki ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, video platformalar orqali ham olmoqda. Agar pedagog bu makonda yetarli bilim va tajribaga ega bo'lmasa, ta'lim jarayoni biryoqlama va samarasiz bo'lib qoladi. Shu bois, pedagog mediasavodxon bo'lishi, axborotni baholash mezonlarini bilishi va buni o'quvchilarga ham singdira olishi zarur.

Axborot madaniyati esa shaxsning ma'naviy immunitetini shakllantiradi. Soxta axborotlar, ekstremistik g'oyalar, axloqiy me'yorga zid kontentlar kuchayib borayotgan bir davrda, axborot madaniyatiga ega bo'lmagan yosh ongni himoyalash qiyin. "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fani aynan shu xavflarning oldini olish, yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, ongli va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bugun ta'lim muassasalarida ushbu fan orqali nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar ham shakllantirilmoqda. Axborotni tekshirish, manbalarni solishtirish, media matnlarini tahlil qilish, axborot xavfsizligi qoidalari rioya etish kabi masalalar pedagog va o'quvchi uchun kundalik ehtiyojga aylanmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, zamonaviy ta'lim tizimi mediasavodxonlik va axborot madaniyatiga to'laqonli rivojlana olmaydi. Bu fan pedagogning kasbiy saviyasini oshiradi, yosh avlodning fikrlash doirasini kengaytiradi va jamiyatda sog'lom axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, mediasavodxonlik - bugunning talabi, axborot madaniyati esa kelajak poydevoridir.

Umida IMOMOVA,
CHDPU Gumanitar fanlar
fakulteti Fakultetlararo ijtimoiy
fanlar kafedrasida o'qituvchisi





INSHOOTLARDA XAVFSIZLIK

Inshootlarda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari davomida yong'in xavfsizligi talab va qoidalariga amal qilish nihoyatda muhimdir. Bu esa qurilish ishlarini samarali yakunlash bilan bir qatorda, unda mehnat qilayotgan quruvchi mehnatkashlarning xavfsizligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Qurilish ob'ektlarida baxtsiz hodisalarning oldini olish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'inlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida yong'in xavfsizligi xodimlari tomonidan profilaktik tadbirlar kuchaytirilgan.

Bu borada har bir vatandoshimiz mas'uliyatni anglab yetgan holda hushyorlikni qo'ldan bermasligi kerak.

I. JO'RAYEV,
"LUOK" XK MCHJ Buxoro viloyatidagi OFV bo'limi
FVP inspektori, mayor

DAVLAT MULKINI YONG'INDAN ASRANG

Zavodlarning xavfsizligini ta'minlashda birinchi navbatda uning yong'in xavfsizligini ta'minlash zarur. Buning uchun har bir zavod ishchi-xodimlari davlat mulkini yong'in xavfidan asrash uchun o'zlari ishlab turgan sexlarda mas'uliyatni his qilgan holda faoliyat olib borishlari kerak. Nafaqat zavod hududida, balki yashab turgan uyimizda ham e'tiborli bo'lib, gaz pechlaridan to'g'ri foydalanish, yosh bolalarni e'tibordan chetda qoldirmaslik darkor.

J. XAKIMOV,
"LUOK" XK MCHJ Buxoro viloyatidagi OFV
bo'limi FVP inspektori, mayor

IJTIMOIIY SOHA OBYEKTLARIDA YONG'IN XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Yong'in xavfsizligini ta'minlash masalasi shaharsozlik sohasi bilan chambarchas bog'liqdir. Yong'inlarni keltirib chiqarish bilan bog'liq bo'lgan sabablardan tashqari, boshqa sabablar ham bor.

Yangi qurilishlardagi yong'inlarning sodir bo'lish sabablari o'rganib chiqilganida, yong'inning yuz berishiga ko'pincha yong'indan xavfli turdagi ishlarni olib borish vaqtida ishlab chiqarish va mehnat intizomini buzilishi sabab bo'layotganligi ayonlashadi. Buning ustiga, har bir yong'inning yuz berishida qo'l ostida ishlayotgan ishchilarning ustidan yetarli nazorat o'rnatmagan mutaxassislarining ham va qurilish ishlarini boshqaruvchi rahbar xodimlarning ham bevosita aybi borligini unutmashlik kerak.

SH. ASHUROV,
"LUOK" XK MCHJ Buxoro viloyatidagi OFV
bo'limi FVP inspektori, leytenant

QURILISH OB'EKTLARIDA YONG'IN XAVFSIZLIGI

Quyida yong'inlarning asosiy sabablari keltirilgan:

- chekish vaqtida ehtiyotkorlikka rioya qilmaslik;
- elektr moslamalardan foydalanish davrida oddiy qoidalarni unutish;
- bolalarning olov bilan o'ynashi;
- gaz-elektr payvandlash ishlarini olib borishda, ochiq olov bilan o'tkaziladigan ishlarda hamda pechlardan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik.

Yong'in xavfsizlik qoidalarini fuqarodan tortib, maktab o'quvchisigacha bilishi shart.

A.XAYRULLAYEV,
"LUOK" XK MCHJ Buxoro viloyatidagi
OFV bo'limi FVP inspektori, leytenant

QURILISHDA XAVFSIZLIK

Quriladigan yoki qurilayotgan bino va inshoot shaharsozlik bosh loyihalariga zid kelmasligi va qurilish me'yor-qoidalariga va yong'in xavfsizligi talablariga to'la javob bera olishi lozim.

Qurilish maskanlarida quruvchilar yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida bir qator talablarga rioya qilishlari shart.

Qurilish maydonchalari yonuvchi chiqindilardan muntazam tozalanishi, qo'lbola elektr isitish asboblariidan foydalanmaslik, qurilish vagonlarini yong'inga xavfsiz masofalarga joylashtirish, vagondan chiqib keta turib elektr tarmoqlari va isitish asboblari o'chirishni unutmashlik va hokazolar shular jumlasidandir.

Z. ZOKIROV,
"LUOK" XK MCHJ Buxoro viloyatidagi OFV
bo'limi FVP inspektori, kapitan

LOQAYDLIK – ENG KATTA ILLAT

Inson yashash xonadonida bo'ladimi yoxud o'zi faoliyat yuritadigan ishxona bo'ladimi, hamma joyda mas'uliyatni his qilgan holda yashasa, mehnat qilsa, baxtsiz hodisalar aslo soya solmaydi.

Mulohazali kishi avvalo, portlash xavfi yuqori bo'lgan hududlarda uchqun chiqaradigan asbob-anjomlardan foydalanmaydi. Bino hududida va xonalarda yengil alanganuvchi suyuqliklarni saqlamaydi. Bundan tashqari, turli qo'lbola gaz va elektr isitish moslamalaridan foydalanmaydi, isitish pech va qozonxonalarni ishlatishdan oldin ularning mo'rilarini tozalashga hamda ularning sozligiga ahamiyat beradi.

Aksariyat muammolar, ayniqsa, yuzaga kelayotgan keng ko'lamdagi yong'inlar odamlarning loqaydligi, "hech narsa bo'lmaydi" qabilida xavfsizlikka e'tiborsiz bo'lishi oqibatida yuzaga keladi. "Falokat oyoq ostida" degan gap bor. U boqibeg'am kimsalarning oyog'idan chalinib bilib qo'ying.

H. HOJIYEV,
"LUOK" XK MCHJ Buxoro viloyatidagi
OFV bo'limi FVP katta inspektori,
podpolkovnik

O'T O'CHIRISH QALQONLARIDAN FOYDALANISH

Birlamchi yong'in o'chirish qalqonlariga bir necha marotaba ko'zingiz tushgan. Ular faqatgina zarurat tug'ilganida, ya'ni avariya holatlaridagina ishlatiladi. Foydalanib bo'lingandan so'ng undagi mavjud vositalar tozalanishi va o'z joyiga tartib bilan joylashtirilishi lozim. Mazkur vositalardan xo'jalik ishlarida foydalanish mumkin emas.

Qalqonni yong'in xavfsizligi xodimlari hamda hududga birlashtirilgan javobgar shaxs birgalikda muhrashlari talab etiladi. Muhrni o'zboshimchalik bilan buzish javobgarlikka sabab bo'ladi. U faqat har uch oyda ochiladi va undagi anjomlar tartibga keltiriladi. Aylanma yong'inni suv bilan o'chirish tizimining doimiy sozligi ta'minlanib boriladi va har 15 kunda mas'ul xodim yong'in xavfsizligi xodimi bilan birgalikda dalolatnoma tuzib boradi.

Ma'sul xodim yong'in suv havzasida suvning kamaymasligiga javobgar hisoblanadi.

SH.MUSTAQIMOV,
"LUOK" XK MCHJ Buxoro viloyatidagi
OFV bo'limi FVP katta inspektori,
katta leytenant

YONG'IN XAVFSIZLIGI OYLIGI

"Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida aholi orasida tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Is gazi turmushda foydalaniladigan tabiiy gazning chala yongan qoldig'i bo'lib, tutun mo'ri yoki dudburonlar orqali tashqariga chiqariladi. Isitish pechlari va suv isitish qozonlari tutun mo'rilarining yashash uyi tomidan yuqoriga chiqarilmasligi, gaz plitalarining uzoq vaqt davomida yoniq qoldirilishi va dudburonlarining yo'qligi, qo'lbola va sertifikatli bo'lmagan isitish pechlari, jumladan, Eron pechidan foydalanish insonlarning is gazidan zaharlanishiga sabab bo'ladi. Bunday uskunalar o'rnatilgan xonada uxlash esa chuqur zaharlanish yoki o'limga olib kelishi mumkin.

Sardorbek ABDURAXIMOV,
Farg'ona tumani FVB inspektori, katta
leytenant



KO'PKARI — AN'ANA EMAS, MA'RIFAT SABOG'I:

BEKOBODDAGI BIR TADBIR IBRATI



Mamlakatimizdagi tumanlar orasida Bekobod nomi so'nggi paytlarda tez-tez tilga olinayotgani bejiz emas. Bu yerda ta'lim, tibbiyot, kitobxonlik madaniyati, yoshlarni ilm-ma'rifatga jalb etish, ustoz-shogird an'analarini tiklash va faol qo'llab-quvvatlash yo'lida amalga oshirilayotgan ibratli ishlar jamoatchilik e'tiborida. Eng muhimi, bu amallar qog'ozda yoki hisobotlar uchun emas, hayotda, ko'z o'ngimizda yaqqol ko'rinib turibdi.

Toshkent viloyati hokimi tashabbusi bilan Bekobod hududida tashkil etilgan uloq-ko'pkari musobaqasi ham ana shu ezgu sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Ilk qarashda, "oddiy ko'pkari-da", degan fikr tug'ilishi mumkin. Men ham avval shunday o'ylagan edim. Ammo musobaqa mohiyati, tashkiliy yondashuv, qo'yilgan maqsad va undagi g'oyaviy yukni anglab yetgach, bunga mutlaqo boshqacha ko'z bilan qaradim.

Uloq-ko'pkari — asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyat. Unda jasorat, mardlik, adolat, sabr va jamoaviy hamjihatlik mujassam. Odatda, bunday musobaqalarda g'oliblarga qo'chqor, toy, nortuya yoki avtomobil kabi an'anaviy sovg'alar topshiriladi. Bu safar ham bu an'ana saqlandi. Ammo eng muhim jihat — bosh sovrin tamoman boshqacha mazmunda bo'ldi.

Kitobxonlikni keng ommalashtirish maqsadida eng o'qishli 1000 nomdagi kitoblarni majmuasi, energiya samaradorligini ta'minlash uchun 10 kVt quvvatga ega zamonaviy quyosh panellari, "Yashil makon" umummilliy dasturi doirasida 100 tup noyob chinor ko'chatlari, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligiga qaratilgan islohotlar ruhida bir tonna oliy navli "lazer" guruchi sovrin sifatida qo'yildi. Bu esa ko'pkarini shunchaki tomosha emas, balki ma'naviy-ma'rifiy tadbir darajasiga ko'tardi.

Musobaqada jami ellikdan ortiq sovrin belgilangani uning naqadar nufuzli ekanidan dalolat. Sovuq havoga qaramay, Bekobod qir-adirlari minglab muxlislar bilan gavjum bo'ldi. Bahslar qirg'iz, qozoq va tojik qardosh xalqlarimizning tajribali uloqchi polvonlari ishtirokida yanada qizg'in, hayajonli va mazmunli o'tdi. Halollik va oriyatni tarannum etgan bu bahslar qardosh xalqlarning ildizi bir ekanini yana bir bor namoyon qildi.

Bugun ba'zi joylarda piar uchun, nomigagina o'tkazilayotgan tadbirlar ko'payib borayotgan bir paytda, bir ko'pkari bahonasida ma'naviyat, ilm-ma'rifat, ekologik barqarorlik va sog'lom turmush tarzini uyg'unlashtirgan katta madaniy tadbir o'tkazish — bu ijtimoiy ehtiyoj edi. Va bu ehtiyoj Bekobodda to'g'ri his etildi, to'g'ri amalga oshirildi.

Xalq o'yini orqali qardosh xalqlarni birlashtirish, yosh avlodni ilm-ma'rifatga undash, tabiatga ehtirom ruhini singdirish — bu uzoqni ko'zlab yuritilayotgan siyosatning amaldagi ifodasidir. Bekobodda o'tgan bu ko'pkari ana shu g'oyalarning jonli namunasi sifatida esda qoldi.





So'nggi yillarda aholining fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash borasida adliya organlariga, shu jumladan tuman (shahar) adliya bo'limlariga ishonchi ortib bormoqda.

BIR MUROJAAT IZIDAN

Buning asosi sifatida, fuqarolarning pensiya va nafaqa tayinlash, mehnatga oid huquqlarini, kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish bilan bog'liq muammolarni hal qilish bilan bog'liq adliya bo'limlariga qilgan murojaatlarining tezkorlik bilan hal etilishi hamda bu orqali ularning buzilgan huquqlarini tiklanishi sifatida ko'rish mumkin.

Buxoro tuman adliya bo'limiga kelib tushgan va hal etilgan ko'plab murojaatlarning birgina murojaat yuzasidan to'xtalsak.

Jumladan, Buxoro tumani "Navro'z" MFY Gulobod ko'chasida yashovchi fuqaro Oydin Tursunova (ismi sharifi o'zgartirilgan) tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman bo'limi tomonidan uy-joy kommunal xizmatlar uchun to'langan kompensatsiya to'lovlarini pensiyasidan saqlanayotganligini bildirgan.

O'rganishda aniqlanishicha, 2024 yil 28-iyundagi № 5-sonli Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Buxoro tuman bo'limi komissiyasining pensiya (nafaqa) miqdorining chegirma qilish haqidagi qaror qabul qilingan.

Fuqaro O.Tursunova mazkur qarordan norozi bo'lib, bir nechchi marotaba davlat idoralariga shikoyat qilishiga qaramasdan natija bo'lmagan.

Adliya bo'limi tomonidan fuqaro murojaati o'rganilganda, fuqaro O.Tursunova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 30-sentabr Farmoni bilan № 89-sonli I darajali "Sog'lom avlod uchun" orderi bilan mukofotlanganligi aniqlandi.

O'z navbatida, "O'zbekiston Respublikasining "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.03.1993 yildagi PF-575-sonli Farmoniga asosan I darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan mukofotlanganlar kvartira va kommunal xizmatlar uchun haq to'lashdan ozod qilishi ko'rsatib o'tilgan.

Shu boisdan, tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaro O.Tursunovaning manfaatlarini ko'zlab, 2024 yil 28-iyundagi №5-sonli Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Buxoro tuman bo'limi komissiyasining pensiya (nafaqa) miqdorining chegirma qilish haqidagi qarorini haqiqiy emas deb topish hamda bo'limining 2025 yil 27-oktabrdagi № 01-67/03/01-37/426-sonli xatida ifodalangan hatti-harakatini g'ayriqonuniy deb topish haqida Buxoro tumanlararo ma'muriy sudiga ariza kiritildi.

Buxoro tumanlararo ma'muriy sudi tomonidan ish mazmunan ko'rib chiqib, ariza qanoatlantirildi.

Natijada, fuqaro O.Tursunovaning bir yildan ortiq qiynab kelgan muammo ijobiy hal etilib, buzilgan huquqlari tiklandi.

Xulosa o'rnida, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning buzilgan huquqlarini tiklash adliya organlarining ustivor vazifalaridan biridir.

Uug'bek TO'XTAYEV,
Buxoro tuman adliya
bo'limi boshlig'i

O'zbekiston Respublikasida huquqiy xizmatlar sohasini tizimli tartibga solish, yuridik yordam ko'rsatish sifatini oshirish hamda huquqni qo'llash amaliyotida yagona yondashuvni ta'minlash maqsadida yuridik maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi tijorat tashkilotlari reestrini yuritish amaliyoti joriy etilgan.

Yuridik maslahatchilar tashkilotini reestrga kiritish:

HUQUQIY XIZMATLAR BOZORIDA OCHIQLIK VA SIFAT KAFOLATI

Qonuniy maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi tijorat tashkilotlari reestrini shakllantirish va yuritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kabineti 2018 yil 17 avgustdagi №675-sonli «Tijorat tashkilotlari tomonidan huquqiy maslahat xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini to'g'risida»gi qaror asosida amalga oshiriladi. Ushbu normativ-huquqiy hujjat yuridik maslahatchilarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi, ularni reestrga kiritish mezonlari hamda yuridik xizmatlarni ko'rsatishda tashkilotlar huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Qaror asosida reestrga kiritish tashkilotning huquqiy maqomi rasman tan olinishini ta'minlaydi, kasbiy standartlarga rioya qilinishiga kafolat beradi hamda fuqarolar va biznes hamjamiyatining tashkilotga nisbatan ishonchini oshiradi. Yuridik maslahatchilar tashkilotlarini mazkur reestrga kiritish huquqiy xizmatlar bozorida qonuniylik va shaffoflikni ta'minlashga, shuningdek, fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi. Amaldagi qonunchilik normalari yuridik maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi tijorat tashkilotlari reestrini shakllantirish va yuritish uchun huquqiy zamin yaratib beradi. Ushbu reestr huquqiy xizmatlar sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tizimli tartibga solishga qaratilgan bo'lib, uning mazmuniy asosini tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi, yuridik xizmatlar ko'rsatish qoidalarini hamda adliya organlarining vakolatlarini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Davlat tomonidan vakolat berilgan organ sifatida adliya organlari yuridik maslahatchilar tashkilotlarini reestrga kiritish bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega. Mazkur vakolatlar ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solinib, qaror qabul qilish jarayoni qonunchilikda belgilangan aniq ma'muriy tartib-taomillarga muvofiq amalga oshiriladi.

Belgilangan talablar asosida ariza va tegishli hujjatlar taqdim etilgandan keyin, adliya organlari tomonidan ular huquqiy jihatdan o'rganiladi. Hujjatlar ekspertizasi natijalariga ko'ra tashkilotni reestrga kiritish yoki bunday kiritishni rad etish haqida asoslantirilgan qaror qabul qilinadi, bu esa ma'muriy qaror qabul qilishda qonuniylik va asoslilik tamoyillarining ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Reestrga kiritilish yuridik maslahatchilar tashkilotining huquqiy maqomini rasman belgilab, uning yuridik maslahat xizmatlarini qonuniy asosda amalga oshirish imkoniyatini ta'minlaydi. Ayni paytda, bunday maqom tashkilot zimmasiga qonunchilik talablariga, kasbiy etika qoidalariga hamda huquqiy xizmatlar ko'rsatishning belgilangan standartlariga qat'iy rioya etish majburiyatini yuklaydi.

Amaliyot nuqtai nazaridan qaralganda, mazkur mexanizm yuridik xizmatlar sohasida kasbiy mas'uliyatni kuchaytirish, huquqiy yordam sifati ustidan tizimli nazoratni ta'minlash hamda huquqni qo'llash amaliyotida barqaror va yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

Umuman olganda, yuridik maslahatchilar tashkilotlarini yuridik maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi tijorat tashkilotlari reestriga kiritish instituti huquqiy xizmatlar bozorini davlat tomonidan tartibga solishning samarali huquqiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu institut huquqiy madaniyatni oshirish, bozorda qonuniylik va shaffoflikni ta'minlash, shuningdek, fuqarolar hamda tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Jaxongir YULDASHEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes xukuki kafedra mudiri
Yuridik fanlar doktori, professor



MENING KUTUBXONAM

Mirzacho'l tuman axborot-kutubxona markazi - ilm va ma'rifat chorrahasida qad rostlagan maskan. Bu yerda kitoblar jim turmaydi, ular o'qiladi, o'rgatadi, qalblarga nur sochadi. Kutubxonamiz sokin, fayzli bilim manbai bo'lib, har bir kitobxon bu yerdan bilim va ilhom topadi.

Fondimizda badiiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar, darsliklar, ensiklopediyalar va bolalar kitoblari jamlangan. Ayniqsa, o'zbek va jahon adabiyotining nodir asarlari kutubxonamizning bebaho boyligi sanaladi. So'nggi yillarda fondimiz 652 nomdagi 1754 nusxa yangi kitoblar bilan boyitildi.

Bu adabiyotlar bilimni oshirib, tafakkurni charxlaydi. Kitobxonni ma'naviy kamolot sari yetaklaydi. Xulosa qilib aytganda, bu maskan - Ma'rifat yo'lida porlab turgan nurli manzil.

Mohira AZIZOVA,
Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani axborot-kutubxona markazi
Fondlarni to'ldirish, saqlash va ularga ishlov berish xizmati
AKT mutaxassis

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish jarayonining asoslari

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida, ayniqsa nutqiy rivojlanishida muhim va hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu davrda bolaning nutq apparati faol rivojlanib, lug'at boyligi kengayadi, grammatik tuzilmalardan foydalanish ko'nikmalari shakllanadi hamda og'zaki nutq orqali muloqot qilish qobiliyati takomillashadi. Nutq bolaning bilish faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.



Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki nutqning yetarli darajada rivojlanmaganligi bolaning tafakkuri, xotirasi, diqqat jarayonlari hamda emotsional-irodaviy sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois nutqni rivojlantirish jarayoni tasodifiy emas, balki ilmiy asoslangan, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat sifatida tashkil etilishi lozim. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini rivojlantirish jarayoni psixofiziologik xususiyatlar, yosh davriga xos imkoniyatlar hamda individual farqlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ushbu jarayon samaradorligi nutqni rivojlantirishning asosiy komponentlari - fonetik-fonematik rivojlanish, lug'at boyligini oshirish, grammatik tuzilmani shakllantirish va bog'langan nutqni rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, pedagogning kasbiy mahorati, nutqiy muhitning boyligi, o'yin faoliyati va didaktik materiallarning to'g'ri tanlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari bolalar nutqini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, nutqni rivojlantirish jarayonining nazariy asoslarini chuqur o'rganish, uning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Sabina MURATOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha talim)1-bosqich magistranti



Bizning kutubxona

Kutubxona so'zi ma'no jihatidan qaranganda "kutish xonasi" degan ma'noni anglatgan. Lekin olimlar tomonidan ilgari surilgan fikrlarga ko'ra kutubxona - bu kitob saqlanadigan joy ma'nosini bildiradi. Eng muhimi, necha ming yillardan buyon sayqallanib, ne-ne avlodlarga yo'lchi yulduzdek to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan ana shu xalqona hikmatlar negizidagi asl haqiqat shuki, insonning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli va davlatli bo'lishining muhim omili - bu kitobga do'st bo'lish, hamisha kitob o'qish va kitob mutolaasini umr bo'yi kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning baxtu kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi.

Bu haqda so'z borganda, Istiqlool bizga kitobxon xalq degan azaliy yuksak mavqeimizni nafaqat qaytarib bergani, ayni chog'da, bu boradagi intellektual salohiyatimiz va imkoniyatlarimizni tubdan oshirishning asosiy omili ham bo'lganini ta'kidlash lozim. Binobarin, mustaqillik yillarida mamlakatimizda aholi, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va san'atimizni yanada rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ijodkorlarning mehnatini munosib rag'batlantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan Mirzacho'l tuman axborot-kutubxona markazidir. Men bu kutubxonada faoliyat olib boraman.

Bizning kutubxonamiz turli yoshdagi kitobxonlarga xizmat ko'rsatadigan zamonaviy axborot markazi hisoblanadi. Bu yerda o'quvchilar, talabalar, tadqiqotchilar va oddiy kitobxonlar uchun boy fond, elektron resurslar, ilmiy va badiiy adabiyotlar mavjud. Har kuni bu yerga bilim olish, yangi ma'lumotlar topish, o'z ustida ishlash istagida bo'lgan yuzlab kitobxonlar tashrif buyuradi.

Kutubxonamizda nafaqat kitoblar, balki turli ma'rifiy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar, seminar va treninglar ham o'tkaziladi. Bu orqali biz nafaqat kitobxonlik madaniyatini oshiramiz, balki yosh avlodni ilm-fan, adabiyot va ma'rifat yo'lga yetaklaymiz. Har bir kitobxon bilan alohida ishlashga harakat qilamiz, ularga mos kitoblar, manbalar va tavsiyalar beramiz. Kutubxonamiz bilim, tarbiya va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Uni asrab-avaylash, rivojlantirish har birimizning burchimizdir.

M.SHAYZAQOVA,
Abonomentlar va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish xizmati AKT bo'yicha mutaxassisi



Qadim zamonlarda bir boy o'tkan ekan. Boyligining adog'i yo'q emish. U boy o'zining halolligi, mehnatkashligi, oqko'ngilligi hamda sahiyligi bilan nom chiqargan ekan. Boyning 3 o'g'li bor bo'lib, o'g'illariga qo'ldan kelgancha tarbiya berib, halol mehnat haqida ko'pdan-ko'p uqtirishdan charchamas emish. Shu zaylda kunlar ketidan oylar, oylar ketidan yillar shiddat bilan o'tib boyning ham sochlariga oq oralab, ko'zlari hira tortib, kuchdan qolibdi. O'g'illari esa ancha ulg'ayib, kuch-quvvatga to'lib qolgan edi. Endi o'g'illari orasidan eng maqbulini tanlab, merosxo'rni aniqlash kerak edi. Bu borada boy ancha pishiq edi. O'g'illarini yoniga chorlab, ularga ularning orasidan eng maqbulini tanlab, merosxo'rni aniqlash kerakligini ma'lum qildi. Buning uchun bir shart bor edi. Shart quyidagicha dedi boy.

Halollik mevasi

Menga o'zingizdagi eng hayratlanarli yoki maqtana oladigan biror narsani ko'rsatishingiz darkor. Shartim shu dedida 3 kun muhlat berdi. Muhlat tugab, boy o'g'illarini yana o'z yoniga chaqirib sinovni boshladi. Navbat katta o'g'ilga. Ho'sh o'g'ilim senda maqtana oladigan nima bor? - dedi boy. O'g'il javob berdi. Menda dunyodagi eng qimmat toshlar bilan bezatilgan hamda hali hech kimda yo'q to'nim bor. Bu to'n yer yuzida yagona va u ham faqat menda bor deb javob beribdi. Navbat o'rtancha o'g'ilga. Xo'sh o'g'ilim senda maqtana oladigan nima bor?- dedi boy. O'g'il javob berdi. Menda dunyodagi eng qimmat va eng o'tkir tig'li hali hech kimda yo'q qilichim bor. Bu qilichni qilizsoz butun umr ter to'kib katta mashaqqatlar bilan yasagan, ushbu qilich yer yuzida yagona va u ham faqat menda bor deb javob beribdi.

Navbat kichik o'g'ilga. Mana ikkita akangning ham hayratga soladigan to'nini, qilichini ko'rdik. Ho'sh o'g'ilim senda maqtana oladigan nima bor? - dedi boy bir chekkada qimtinibgina jim o'tirgan o'g'ilga qarab. O'g'il avvaliga indamadi, so'ng uzoq sukutdan keyin javob berdi. Menda dunyodagi eng qimmat va eng bebaho uch ne'mat bor. Men bu ne'matlar bilan hech qaerda va hech qachon hor bo'lmay-man. Bular aqlli boshim, jasur yuragim va mehnatkash qo'limdir. Ota ham yon-larida o'tirgan akalari ham bu javobdan hang-u mang bo'lib qolishdi. Oraga cho'kkan uzoq jimlikdan so'ng ota merosxo'rni e'lon qildi. Merosxo'rlikka kichik o'g'il eng munosib deb topildi hamda merosning barchasi unga berildi. Akalari ham ukasining bunday aqlli, mehnatkash, jasur hamda halolligiga tan berishdi. Kichik o'g'il merosga egalik qilgach shunday qarorga keldi. Meros uch o'g'il orasida teng taqsimlanishi eng maqbul yekanini aytdi va taqsimladi.

Shundan buyon aka-ukalar halol mehnat qilib, ahillikda to'kin va farovon hayot kechirishar emish.

I.YUSUPOV,
Oqqo'rg'on tuman 1-son politexnikumi maxsus fan o'qituvchisi

Qonunchilikdagi yangilik

FARZANDINGIZ ZO'RAVONLIKKA UCHRASA... BU — KECHIRILMAS JINOYAT



Xalqimiz bolajon. Ota-ona borki, o'z farzandini ardoqlaydi, avaylaydi. Biroq so'nggi yillarda ayrim ota-onalar va tarbiyachilar bolalarni urib kaltaklamogda, hatto tan jarohati yetkazish holatlari ham uchrab turganligi nihoyatda tashvishlanarli holatdir. Bunday noxush xabarlar ommaviy axborot vositalarida ham tarqalmoqda.

Qayd etish kerakki, keyingi yillarda bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatlari ko'payib bormogda. Ularning oldini olish, jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning amaldagi huquqiy mexanizmlari yetarli darajada samarali emas edi.

Xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlariga ko'ra, dunyoda 1 milliardga yaqin bolalar jismoniy, jinsiy, ruhiy zo'rvonlikka va g'amxo'rlikdan mahrumlikka duch kelishadi, jabrlangan bolalarning 80 foizi bu haqda hech kimga xabar bermaydi.

So'nggi uch yilda 2000 nafardan ortiq fuqaro sud qarori bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilgan. Shundan 86 foizi ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka tortilgan. Shuning uchun bu illatning oldini olish, unga qarshi samarali kurashish maqsadida yaqinda «Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Hujjat bilan zo'rvonlikdan jabr ko'rgan bolalarga himoya orderini berish tartibi belgilandi. U ichki ishlar organlari tomonidan 30 kungacha muddatga beriladi va zo'rvonlikdan jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga vakolatli davlat organi ishtirokida topshiriladi.

Zo'rvonlikdan jabrlanuvchining yoki uning qonuniy vakilining arizasiga ko'ra, agar tahdid hali bartaraf etilmagan bo'lsa, himoya orderining amal qilish muddati jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan 1 yilgacha uzaytirilishi mumkin.

Bolalar sodir etilgan zo'rvonlik oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplash va ma'naviy zararni qoplash talabi bilan sudga murojaat qilish, shuningdek, zo'rvonlik masalalari bo'yicha davlat organlariga bevosita yoki qonuniy vakil orqali murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi.

Qonun ota-onalarning mas'uliyatini oshiradi. Unda ota-onalar bolalarning hayoti va sog'lig'ini asrashlari, ularga g'amxo'rlik qilishlari va zararli ta'sir ko'rsatadigan axborotdan himoya qilishlari kerakligi

nazarda tutilgan. Hujjatda bolalarni tarbiyalash jarayonida ularni jismoniy jazolash alohida taqiqlangan.

Qonunda birinchi marta zo'rvonlik xavfi ostida bo'lgan bolalarning 12 toifasi (yetimlar, qarovsiz bolalar, aqli zaif bolalar, fohishalik, tilanchilik bilan shug'ullanuvchi bolalar, ta'lim va tarbiya talablariga javob bermaydigan sharoitlarda bo'lgan bolalar, kam ta'minlangan oilalar farzandlari) aniq belgilanmoqda.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi zo'rvonlik qurboni bo'lgan, zo'rvonlik xavfi ostida bo'lgan bolalarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va zarur hollarda ularga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish bo'yicha individual choralar ko'rilishini ta'minlashga yordam beradi.

Choralarga tajovuzkor xulq-atvorni tuzatish va jinsiy zo'rvonlik sodir etgan shaxslarning huquqlarini cheklash dasturlari kiradi. Agentlik tomonidan jabrlanuvchilarga bepul yordam ko'rsatish uchun kechayu kunduz ishlaydigan ishonch telefoni ham tashkil etiladi.

Hujjat bilan, bolalarga nisbatan zo'rvonlik shakllariga berilgan ta'riflar soni 3 tadan (jismoniy, jinsiy, ruhiy) 6 taga (g'amxo'rlik qilmaslik, ekspluatatsiya, bulling) oshirildi. Umuman olganda, bolalarni himoya qilish, ularning huquq va manfaatlarining ta'minlanishi jamiyatning bugungi va ertangi kunini belgilovchi masala sanaladi. Shunday ekan, bu oila - mahalla - jamiyat hamkorligini talab qiladi. Tizimni to'g'ri yo'lga qo'yish bilan bolalarni zo'rvonlikning turli ko'rinishlaridan asrash bo'yicha ko'plab muammolarga yechim topsa bo'ladi.

Bobir UMAROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha tergov sud'yasi

QONUN OLDIDAGI JAVOBGARLIK

Valyuta ayirboshlashni tartibga solish, aholiga qulaylik yaratish maqsadida qonuniy mexanizm yaratilgan bo'lishiga qaramasdan xorij valyutasini qonunga xilof tarzda sotish, sotib olish kabi qonunbuzilishlarni sodir etayotgan shaxslar hali ham uchrab turibdi.

Aniq ish joyi bo'la turib qo'shimcha tarzda foyda topishni ko'zlagan Baxtiyor Nodirov (ism va familiyalar o'zgartirildi)ga 2025 yil 22 yanvar kuni soat taxminan 10:00larda fuqaro D.T. qo'ng'iroq qilib, AQSH dollarini so'mga nisbatan qiymatini so'radi.

— 4.000 AQSH dollarini so'mga ayirboshlashim kerak.

— Qanchada kelasiz?

— Bir soatlarda o'taman.

Xaridor aytgan vaqtida keldi. Dollarfurush Baxtiyor Buxoro shahridagi eski savdo markazi binosi oldiga kelib, 4.000 AQSH dollari uchun unga 51.600.000 so'm pullarni berganda qonun oldida javobgarlikni tamoman unutdi. Xaridorning onam kasal, chet elga ketishim kerak degan gaplari uchun insonparvarlik yuzasidan dollar savdosiga qo'l urganinini sudda aytib yengillik so'radi.

Qonunning o'z tarozisi bor. Har qanday qonunbuzarga jazo muqarrar.

B.Nodirovni sud aybli deb topdi. Unga, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi tegishli moddasi bilan bazaviy hisoblash miqdorining 35 (o'ttiz besh) baravari miqdorida - 13.125.000 (o'n uch million bir yuz yigirma besh ming) so'm jarima jazosi tayinlandi.

Shaxzodbek MURODOV,
Departamentning Shofirkon tuman
bo'limi tergovchisi

XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan boshlab yurtimizda xorijiy tillarga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortib bordi. Bu jarayonda italyan tili ham o'ziga xos o'rin egalladi. Italyan tili nafaqat Yevropaning madaniyat va san'at markazi sifatida qadrlanadi, balki O'zbekistonning madaniy va ta'lim maydonida ham muhim ta'sirga ega tilga aylandi.

ITALYAN TILINING O'ZBEKISTONDAGI O'RNI HAMDA MADANIYATGA TA'SIRI

O'zbekistonda italyan tilini o'rganishning ijobiy jihatlari, xususan, oliy o'quv yurtlarida italyan tilini ikkinchi til sifatida o'qitish yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq. Toshkentdagi ba'zi universitetlarda italyan tili kurslari mavjud bo'lib, talabalar ushbu tilni o'rganish orqali Yevropaning madaniyati, tarixi va san'atiga yanada yaqinlashmoqda. Shuningdek, Italiya oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorliklar tufayli O'zbekistondan talaba va ilmiy xodimlar Italiyaga malaka oshirish va ta'lim olish uchun borish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Italyan tili bilan birga Italiya madaniyati O'zbekistonda san'at, musiqa, kino va gastronomiya sohalarida ham o'z aksini topgan. Italiyaning klassik va zamonaviy musiqasi, opera san'ati O'zbekiston madaniy hayotida katta qiziqish uyg'otmoqda. Bundan tashqari, italyan kinosi va teatr asarlari O'zbekistonda namoyish etilib, italyan tilida so'zlashuvchi ijodkorlar ijodiga qiziqish ortmoqda. Xususan, Aleksandr Faynberg, Dante Aligyeri, Janni Rodari kabi ijodkorlarning asarlari sifatli tarjima qilinib qayta-qayta kitobxonlarga taqdim etilmoqda.

Shuningdek, italyan oshxona madaniyati O'zbekistonda keng tarqalib, pitsa, pasta kabi italyan taomlari keng ommalashmoqda. Bu esa ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy almashinuvni yanada mustahkamlaydi. O'zbek yoshlarining italyan tilini bilishi, ularning xalqaro ish bozori va madaniyatlararo muloqotdagi imkoniyatlarini kengaytiradi.

Italyan tiliga qiziqish va hurmat yuqoriligi sababli yurtimizning ko'plab do'kon brendlari o'z nomiga italyancha so'zlarni belgilamoqda. Xususan, mazali pitsalari bilan mashhur "Bellissimo", ajoyib dekoratsiyaga ega "Giotto", "Bravissimo" kabi kafe va restoranlar, "Molto Caldo" kabi kiyim do'konlarini misol qilib keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, italyan tilining O'zbekistondagi o'rni tobora oshib bormoqda. Bu nafaqat ta'lim va madaniyat sohalarida, balki iqtisodiy hamkorlik va xalqaro aloqalarda ham o'z aksini topmoqda. Italyan tilini o'rganish orqali o'zbek yoshlari nafaqat yangi tilni egallamoqda, balki italyan madaniyatining boyliklarini kashf etmoqda. Bu esa ikki xalq o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Subhidam ABDULHAMIDOVA,
Ozbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti,
Tarjimonlik fakulteti 1-kurs talabasi

Havo sifati - bu havoning insonlar, hayvonlar va o'simliklar uchun xavfsiz yoki iflos ekanligini o'lchash mezonini. Havo sifati ko'plab omillarga bog'liq va murakkab masala hisoblanadi. Havo ifloslanishi transport, sanoat, qishloq xo'jaligi va tabiiy hodisalar, masalan, vulqon yong'inlari, o'rmon yong'inlari yoki organik moddalarning parchalanishi orqali yuzaga keladi. Shu bilan birga, inson faoliyati, masalan, avtomobil yo'llari, sanoat korxonalari, ko'mir va neft mahsulotlarini yoqish, ham havo sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

HAVO SIFATI VA UNING IFLOSLANISHINING SALOMATLIKKA TA'SIRI

Havo ifloslanishining asosiy moddalari quyidagilar: sulfid dioksid (SO_2), azot oksidlari (NO_x), karbon monoksid (CO), uchuvchi organik birikmalar (VOC), ozon (O_3), mayda zarrachalar (PM) va amoniak (NH_3). SO_2 ko'proq ko'mir va boshqa yoqilg'ilarni yoqish orqali hosil bo'ladi, NO_x esa avtomobillar va sanoat jarayonlaridan chiqadi. Mayda zarrachalar havoga to'g'ridan-to'g'ri chiqarilgan yoki gazlar bilan kimyoviy reaksiyalar natijasida hosil bo'lgan bo'lishi mumkin.

Havo ifloslanishining inson salomatligiga ta'siri juda keng va murakkabdir. Avvalo, nafas olish tizimi eng ko'p zarar ko'radi. Mayda zarrachalar ($PM_{2.5}$) inson o'pkasiga chuqur kirib, astma, surunkali bronxit, emfizema va boshqa nafas kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, genetik omillar ham ahamiyatga ega: tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi genetik moyilliklarga ega odamlar iflos havoda yashashda astmaga ko'proq chalinishadi.

Havo ifloslanishi turli xildagi saraton kasalliklari bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Benzinga uzoq muddatli ta'sir oqibatida leykemiya va limfoma rivojlanishi ehtimoli yuqori. Ko'mir energiyasidan ko'p foydalanadigan hududlarda esa o'pka saratoni xavfi yuqori bo'ladi. Shuningdek, avtomobil yo'llari yaqinida yashovchi ayollarda ko'krak saratoni ko'proq uchraydi.

Havo ifloslanishidan eng ko'p xavf ostida bo'lgan guruhlar - bu homilador ayollar, bolalar va qariyalar. Homiladorlik davrida havodagi PAH va $PM_{2.5}$ zarralaridan nafas olish ona va bola salomatligiga salbiy ta'sir qiladi. Masalan, past vaznli chaqaloq tug'ilishi, bolalarda diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik belgilarining ko'payishi, shuningdek, autizm rivojlanish xavfi ortiradi. Bolalar orasida havo iflosligi astma va bronxit kasalliklarini kuchaytiradi, ko'plab sport bilan shug'ullanishga to'sqinlik qiladi. Qariyalar orasida uzoq muddatli havo ifloslanishi jismoniy qobiliyatni pasaytiradi va xotira bilan bog'liq muammolarni kuchaytiradi.

Havo sifati nafaqat shahar aholisi, balki qishloq hududlarida yashovchilar uchun ham muhimdir. Qishloq joylarda, ayniqsa qishloq xo'jaligi va hayvonchilik bilan shug'ullanuvchi hududlarda $PM_{2.5}$ va boshqa ifloslantiruvchi moddalar yuqori bo'lishi mumkin. Havo ifloslanishini nazorat qilish va kamaytirish uchun bir qator choralar mavjud. Ular orasida yuqori samarali HEPA filtrlari; daraxtlar va o'simliklar bilan yashil chegaralar yaratish; shahar dizaynini yaxshilash va piyoda va velosiped yo'llarini kengaytirish kabi amaliyotlar mavjud. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik va hududiy nazorat ham muhim ahamiyatga ega, chunki havo ifloslanishi bir mamlakat bilan cheklanmay, qo'shni hududlarga ham ta'sir o'tqazadi.

Yevropada oxirgi yillarda qabul qilingan siyosatlar va ifloslanishni kamaytirish choralari havo sifatini yaxshilashga yordam berdi. Havo sifati monitoringi stansiyalari va matematik modellash usullari orqali nazorat qilinadi. Monitoring havo ifloslanishining mavjud holatini aniqlashga yordam bersa, dispersiya modellari kelajakdagi havo sifatini bashorat qilishda foydali bo'ladi.

Hozirda Toshkent shahri havosi, yomg'irli kunlardan keyin ancha tozalandi. Osmonimizni yanada musaffo ko'ra oldik, biroq muammo qayta takrorlanishi ehtimoli juda yuqori. Muammoni bartaraf qilishdan ko'ra, uning oldini olgan ma'qul.

Xulosa qilib aytganda, havo sifati inson salomatligi va atrof-muhit uchun juda muhimdir. Havo ifloslanishini kamaytirish va nazorat qilish, shuningdek, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish jamiyatning barcha a'zolari uchun zarurdir. Nafas olish tizimi, yurak va qon tomir tizimi, saraton kasalliklari va bolalar hamda qariyalar salomatligi havo sifatiga bevosita bog'liq. Shu sababli, ekologiyamizga ko'rsatayotgan o'zgarishlarimizni nazorat qilib borishimiz har bir Yer sayyorasi fuqarosining burchidir!

Sofiya RUSTAMOVA,
Toshkent shahri

— OIV kasalligining yashirin davri uzoq davom etarmish, bu qanchalik haqiqatga yaqin? Yashirin davrida kasallikni qon tahlillari ham ko'rsatib berolmaydimi?

— OIV infeksiyasi uzoq davom etuvchi surunkali virusli yuqumli infeksiyalar qatoriga kiradigan antroponoz (faqat odam kasallanadigan) kasallikdir. Haqiqatdan ham xastalikning yashirin davri 3-6 oydan 10 yil va undan ham ko'proq davom etishi mumkin. OIV infeksiyasi laboratoriyalarda qon tahlilini shu infeksiyaga tekshirish asosida aniqlanadi. OIV infeksiyasi yuqqandan keyin 3 oy ichida kasallikni laboratoriya usulida aniqlash mumkin.

— OIV infeksiyasi mavjud onaning farzandi sog'lom tug'ilishi mumkin ekan. Bu qanchalik haqiqatga yaqin?

— OIV onadan bolaga yuqishining oldini olish maqsadida homilador ayollar barvaqt hisobga olinib, homiladorlikning 12 haftasidan boshlab, sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'imida bepul OIV infeksiyasiga tekshiriladi. Infeksiya aniqlangan holatlarda ular dispanser kuzatuviga olinadi va antiretrovirus profilaktikasi bilan qamrab olinadi. Olib borilayotgan profilaktik tadbirlar natijasida hozirda O'zbekistonda 99 foiz holatlarda OIV infeksiyali onalardan sog'lom farzandlar tug'ilishiga erishildi.

— OITS kasalligiga chalinayotganlar asosan xorijda ishlab qaytgan fuqarolar hissasiga to'g'ri kelayotgan ekan?

— Ha. Migratsiya jarayonlari aholi orasida OIV infeksiyasining tarqalishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Keyingi yillarda chet davlatlarda uzoq vaqt bo'lib, qaytgan fuqarolarimiz orasida OIV infeksiyasi bilan kasallanish holatlari aniqlanmoqda. Agar odam o'zida OIV infeksiya borligiga shubha qilsa, Respublika, Toshkent shahar va viloyat OITSga qarshi kurash markazlarining anonim xonalarida maxfiy tarzda qon topshirib, OIV infeksiyasiga tekshirish huquqiga ega. Bunda tekshiriluvchining shaxsi, kasb-kori maxfiyligicha qoladi. Ammo bugungi kunda OIV infeksiyasiga qarshi maxsus profilaktikaning yo'qligi sababli kasallikka qarshi emlash ishlari amalga oshirilmaydi. Kasallikni yuqtirib olganligi ma'lum bo'lgan taqdirda esa, bugungi kunda OIV infeksiyasini yuqtirgan odamning umrini sog'lom odamning umrichalik uzaytirish mumkin. Buning uchun retrovirusga qarshi davolash usuli — antiretrovirusga qarshi terapiya mavjud. Antiretrovirus preparatlar virusni to'liq yo'q qilmasa-da, uning bemor organizmidagi ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaydi, ya'ni dorining ta'sirida qonda viruslar soni kamayib, immunitet kuchayadi, virusga qarshi kurashuvchi hujayralarning ($SD4$) soni ortib, bemorning ahvoli yaxshilanadi. OIV infeksiyali shaxsning sog'lom hayot kechirishi va uzoq umr ko'rishiga imkon yaratiladi. Bu dorilar faqat OITSga qarshi kurashish markazlari vrachlari tomonidan buyuriladi va teklin beriladi. Buning uchun esa tibbiy ko'rsatma bo'lishi darkor.


— OITSni go'zallik salonida manikюр orqali ham yuqtirish mumkin ekan.

— Teri va shilliq qavatlar butunligi buzilishi bilan kechgan har qanday muolajalarda nosteril anjomlardan foydalanilsa, OIV infeksiyasini yuqtirib olish xavfi yuzaga keladi.

— Agar OITS bilan xastalangan odam kasalligini yashirib, boshqalarga qasddan yuqtirmoqchi bo'lsa, unga javobgarlik belgilanganmi?

— «Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunga asosan, OIV infeksiyasi bilan xastalangan odam boshqalarga qasddan kasallikni yuqtirsa yoki yuqtirish xavfini yuzaga keltirsa, jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilab qo'yilgan.

Feruza UMAROVA,
Buxoro viloyat OISga qarshi kurashish markazi epidemiolog vrachi



Mahzuna MUXAMEDOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti,
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha talim) 1-bosqich
magistranti

KICHKINTOY TADQIQOTCHILAR VA TABIAT

Bugungi kunda ekologik muammolar kuchayib borayotgan bir davrda bolalarda tabiatga nisbatan ongli munosabatni erta yoshdan shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolaning dunyoqarashi, qiziqishi va dastlabki bilimlari shakllanadigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik tarbiya berish orqali bolalarni "kichkintoy tadqiqotchilar" sifatida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiatni bevosita kuzatish, ushlab ko'rish, solishtirish va tajriba qilish orqali yaxshiroq anglaydilar. Fan va tabiat markazlarida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning tabiiy qiziqishini qo'llab-quvvatlaydi, ularni mustaqil fikrlashga va savollar berishga undaydi. Masalan, urug' ekish, o'simlikni parvarishlash, suv va qum bilan tajribalar o'tkazish bolalarda sabab-oqibat bog'lanishini tushunishga yordam beradi. Ekologik tarbiya jarayonida bolalarda tabiatga mehr, uni asrash mas'uliyati va ekologik madaniyat shakllanadi. "Nega daraxtlar kerak?", "Suvni nima uchun tejash lozim?" kabi oddiy savollar orqali bolalarda ekologik fikrlash rivojlanadi. Bu esa kelajakda tabiatga befarq bo'lmagan, ongli shaxs tarbiyalanishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, fan va tabiat markazida olib boriladigan faoliyat bolalarning nutqi, mayda motorikasi, mantiqiy tafakkuri va ijtimoiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Jamoa bo'lib ishlash, o'z kuza-tuvlarini boshqalarga aytib berish, natijani baholash kabi jarayonlar bolani faol ishtirokchiga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, "Kichkintoy tadqiqotchilar va tabiat" mavzusida olib borilgan ishlar maktabgacha ta'lim tizimida ekologik tarbiyaning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tabiatni sevib o'rgandigan bugungi kichkintoylar kelajakda uni asraydigan mas'uliyatli avlod bo'lib voyaga yetadi.

MEROS ISHI OCHILDI

Buxoro viloyati, Vobkent tumani, Sariosiyo MFY, Sariosiyo qishlog'i 256-uyda yashab, 2025-yil 7-iyunda vafot etgan Xolov Rafiq Raupovichning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rlaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Vobkent tumanidagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.

Yangi yil — quvonch va orzular bayrami



Men, Yangi yil bayramini juda yaxshi ko'raman. Chunki Yangi yil — bu nafaqat yangi sana, balki yangi orzular, ezgu niyatlar va quvonchli damlar bilan kirib keladigan bayramdir.

Maktabimizda Yangi yil bayramiga alohida tayyorgarlik ko'riladi. Sinfxonalari bezatiladi, o'quvchilar she'r yodlaydi, qo'shiqlar o'rganadi. Bu jarayonlar biz uchun juda qiziq va maroqli o'tadi. Har bir bola bayram kuni sahnaga chiqib, o'z iqtidorini namoyon etishni istaydi.

Bu bayramni yanada mazmunli o'tishida bizning sinf rahbarimiz — Rumiya Asadovaning o'rni beqiyos. Ustozimiz har doim bizga mehr bilan munosabatda bo'ladi, har bir ishda yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Bayram tadbirlariga tayyorgarlik jarayonida ham Rumiya ustoz sabr-toqat bilan bizga yordam beradi, rag'batlantiradi. Uning

mehnati tufayli har bir bayram esda qolarli va tartibli o'tadi.

Yangi yil kuni biz bir-birimizni tabriklaymiz, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr ko'rsatishni yanada chuqurroq anglaymiz. Bu bayram qalbimizda iliq tuyg'ular, kelajakka ishonch uyg'otadi.

**Yangi yil keldi quvonch bilan,
Orzularga nur, ishonch bilan.
Ustozimga rahmat aytaman,
Ilm yo'lida yetaklar har on.**

Mumtozbeim Istamova,
Jondor tuman 23-maktab 3-“B” sinf o'quvchisi



"Robbinig rizosi ota-onaning rizoligidadir.
Robbinig noroziligi ota-onaning noroziligidadir"
(Hadisi sharifdan)

Hayotdagi suyanchim

Ota-bizni dunyoga kelishimizga, bu yorug' olamni ko'rishimizga sababchi bo'lgan inson. U hayotimizning poydevori, suyanchig'i. Otamiz bizga xuddi malikalardek munobatda bo'ladi, asrab-avaylab bor mehrini beradi. Ular oilamizning ustuni, farzandlarini, oilasini har qanday vaziyatda ham himoya qila oladi. Otani yo'limizni yoritguvchi nur desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunki u hayotda bizga hamma narsada o'rnak bo'ladi. Tushkunlikka tushganimizda ham, muvaffaqiyatsizlikka uchraganimizda ham bizga hamisha tasalli bera oladi. Otamiz bo'lmaganda biz shu darajaga yetishmagan bo'lardik. Erta-yu kech qancha mashaqqat-u qiyinchiliklarga chidab bizni o'qitgan, hayotda o'z o'rnimizni topishimizga sababchi bo'lgan zahmatkash insondir. Biz biror bir yutuqqa erishsak, ich-ichidan judayam xursand bo'lishadi. Baxtiyorligidan hammaga maqtanishadi. Ular qanchalik qiyin, og'ir mehnat qilsa ham, uyga kelib farzandini bag'riga bosganida hamma charchoqlari, dardlarini ozgina bo'lsa ham unutishadi. Ular azoblarini farzandlariga ko'rsatmaydilar.

Alloh Qur'oni Karimning Isro surasi 23-oyatida shunday deb marhamat qiladi: "Va Robbingiz faqat O'zigagina ibodat qilishingizni va ota-onalarga yaxshilik qilishingizni buyurdi". Ushbu oyatda ham ota-ona haqida so'z boradi. Unga ko'ra ota-onamizga hamisha yaxshilik qilishimiz aytiladi. Ularni ardoqlaahimiz biz, farzandlarning muqaddas burchidir. Yana quyidagi rivoyatni ham keltirishimiz mumkin: Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Saodat asrida bir yigit Payg'ambarimiz alayhissalomga otasidan shikoyat qilib keldi. U shunday shikoyat qildi: "Yo Rasululloh, otam men

topgan hamma molimni ishlatib yuboryapti. Bunga uning haqqi bormi?" dedi. Payg'ambarimiz alayhissalom: "Otangni chaqirib kel", dedilar. Ota bechora o'g'li Rasulullohga shikoyat qilganini sezdi. Ota o'g'liga: "Sen ketaver, men ortingdan yetib boraman", dedi. Ota shoirtabiat inson ekan. Yo'l-yo'lakay o'g'lidani qattiq ranjiganidan she'r to'qidi. Lekin u farzandini ehtiyot qilib, she'rni tiliga ham chiqarmadi. Dilidan o'tkazdi, xolos. Shu payt Jabroil alayhissalom Payg'ambarimiz alayhissalomning oldilariga tushib: "Yo Rasululloh sollallohu alayhi vasallam, sizga Alloh taolo salom aytdi. Hozir oldingizga bir mo'ysafid odam kelyapti. Undan ichida to'qigan, ammo tiliga chiqarmagan narsani aytib berishini so'rang", dedi. Haligi odam kelgach, Payg'ambarimiz alayhissalom undan: "O'g'ingiz shikoyat qilyapti, topgan mol-u dunyosini, pullarini ishlatib yuborar ekansiz", dedilar. Ota: "Yo Rasululloh alayhissalom, o'g'limdan so'rang-chi, uning topganlarini o'zim uchun ishlatibmanmi? Hammasini opa-singlisiga, amma-xolasiga berdim-ku", dedi. Shu gapdan so'ng Rasulimiz alayhissalom: "Mayli, qo'yavering. Siz hozir kelayotganingizda, ichingizda to'qib, tilingizga ham chiqarmagan narsani aytib bering", dedilar. Haligi ota hayron qoldi. Payg'ambarimiz alayhissalomga yana bir karra imon keltirib: "Siz haqiqiy Rasululloh ekansiz. Axir, buni men hatto tilimgayam ham chiqarmagan edim, qalbidan o'tkazgandim, xolos. Qayerdan bildingiz?" deb so'radi. U zot: "Menga bildirildi", dedilar. Haligi odam she'rni aytib berdi (farzandi yoshligida ko'p kasal bo'lgan chog'i, shuni esladi ota):

Boqdim seni jon bolam,
Qalbim surguga to'lib
Quvonchga to'ldi olam,

Ulg'ayding yigit bo'lib.

Bo'ldim kechalar bedor,
Senga yetganda alam,
Tanda qolmadi mador,
Yetdi ko'klarga nolam.

Go'yo edim men bemor,
Boshga yog'ilib toshlar,
Qalbinga to'ldi ozor,
Ko'zdan to'kildi yoshlar.

Firoq meni qo'rqitdi,
Chang solib senga o'lim,
Dardlar meni yiqitdi,
Ming titroq tutdi qo'lim.

Do'sting bo'lib alp o'g'lon,
Kamolga yetib asta,
So'zlaringdan yurak qon,
Bo'ldim-ku bolam xasta.

Aqli yo'q, nodon, deding,
Shumi sendan ko'rganim,
Kuchsiz bir ojiz, deding,
Ustimdan kuldi g'anim.

Netay, menga dilbandsan,
Qilgum senga yaxshilik,
Axir, menga farzandsan,
Yuz burmayman dushmandek.

Bu she'rni eshitib, Nabi alayhissalom yig'lab yubordilar va: "Sen ham, mol-u dunyoying ham otangniki", dedilar. Ushbu rivoyatdan shuni anglashimiz lozimki, ota qanchalik qiynalsa ham farzandim deya yashaydi.

Otamizni vaqtida qadriga yetishimiz darkor. Yana biz, ularga qanchalik yomonlik qilsak ham, ular bizga aslo yomonlikni ravo ko'rmaydilar.

Go'zalxon YUSUPOVA,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat Universiteti Filologiya
va san'at fakulteti 3-bosqich talabasi

«EZGULIK»

Respublika
elektron
gazetasi

MUHARRIR:
Obid QO'LDOSH

Gazeta
«EZGULIK»
tahririyati kompyuter
markazida sahifalandi.

Navbatchi muharrir:
Hamzabek
TURDIYEV

Musahhih:
Nafosat TOTLIYEVA

Sahifalovchi:
Mubina
TOYIROVA

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar muallifga
qaytarilmaydi. Mualliflar
fikri tahririyat nuqtai
nazaridan farqlanishi
mumkin.

Gazetada internet
materiallaridan foydalanildi.

Tahririyat manzili:
Buxoro shahri, A.Temur ko'chasi, 25-uy.
Telefon: (99)700-25-04

Elektron gazeta 2023 yil 23 yanvarda
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №41930465 raqam
bilan ro'yxatdan o'tgan.